



YOSH OILA BARQARORLIGINING SOTSIOLOGIK KONSEPSIYASI

Zaretdinova Nesibeli Kurbanbaevna

(Ilmiy rahbar: QQDU "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida docenti (PhD))

Kurbanbaeva Mehriban Jenisbay qizi

(Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti)

Sociologiya yonalishi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20393868>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2026

Accepted: 21st May 2026

Published: 26th May 2026

KEYWORDS

Yosh oila, nikoh, oilaviy munosabatlar, qadriyatlar, ota-onalik, farzand tarbiyasi, moliyaviy barqarorlik, rejalashtirish, ijtimoiy muammolar, oila turlari, mas'uliyat, muhabbat, hurmat, sabr, jamiyat.

ABSTRACT

Mazkur ishda yosh oilaning mazmuni, uning jamiyatdagi ornini va ahamiyatini yoritilgan. Yosh oilalarda uchraydigan asosiy muammolar, ularning sabablari hamda ota-onalikga tayyorgarlik bosqichlari tahlil qilingan. Shuningdek, olimlar tomonidan yosh oilalarning turlari, oilaviy qadriyatlar va munosabatlarning ahamiyati bayon etilgan. Oilaviy hayotni to'g'ri rejalashtirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va farzand tarbiyasiga ongli yondashuv yosh oilaning mustahkamligini belgilovchi muhim omillar sifatida ko'rsatib berilgan.

Yosh oila –bu yaqinda turmush qurgan er-xotinlar hisoblanadi. Ular oilaning achchiq haqiqatlaridan sinovlaridan xabari yoq boladi. Ular bir biriga suyangan holda yangi hayotga qadam tashlashadi. Yosh oilalar jamiyatning kelajagini belgilaydi. Chunki ulardan tuguladigan avlodlar qadriyatlar va a'nanalarni davom ettiradilar. Ularning orasida hurmat, tushunish, sabrli bolish va farzandli hohish istaklari boladi. "Demak, yosh oila – bu rasman qayd etilgan nikoh munosabatlariga kirishgan 17 yoshdan 30 yoshgacha bolgan er va xotin birligidir"[1].

Yosh oilaning oldida bir qancha qiyinchiliklar bor:

- hali ularda bolalik hissi mavjud;
- moliyaviy qiyinchiliklarga tayyor emasligi;
- qarindoshlik munosabatlarda qiynaladi;
- mas'uliyatlarga tayyor emaslik;
- ish va oqishdagi muommolar bularning barchasi ularda bor.

Ota-onalikga tayyor ekanligining to'rtta bosqichi bor. Bular:

- 1) ota-onalik hissinini sezish va anglash, ota onalik burchlarini bilishdir.
- 2) Farzand tarbiyasini yaxshilovchi bilimlarga ega bolish. Chunki farzandni to'g'ri tarbiya qilish uning sog'lom osishi manaviy boy va mustaqil fikrli inson qilib yetkazish bu avvalo ota-onaga bogliq.

3) Harbir ishga másuliyat bilan qarashlik.

4) Oiladagi qadriyatlarni óziga singdirish.

Rossiyalik olimlar (F.A.Mustayeva, N.Akerman) fikriga kóra yosh oilalarning uch turi mavjud. Bular:

Añanaviy - bu turdagi oilada er-xotin uchun birgina oilaviy qadriyatlar ustuvor sanaladi. Bunday oilada ikki yoki undan ortiq farzandlar boladi. Oilada, rasman erkak yetakchi sanaladi.

Er-xotinning har biri individual ehtiyojlarini qondirish, shaxsiy kamol topishga yónaltirilgan, kam farzandli oilalar. Ijtimoiy - rolli muvozanat kuzatiladi. Yetakchilik turiga kóra demokratik, birgalikda yoki alohida hayotiy faoliyat tanlanadi.

Yosh er-xotin asosan kóngil ochishga moyil. Bunda er va xotin umumiy dostlar qatorida eski qadrdonlaridan óz dostlariga ega boladilar. Reproduktiv tartiblarga kóra farzandsizlik yoki kam farzand nazarda tutiladi. Oilada yetakchilik avtoritar yoki demokratik bolishi mumkin [2].

Rasman nikohtan ótilgannan sóng ularda hurmat kuchaya boshlaydi. Dastlab ularda katta oiladan kichik oilani payda qilishadi. Patriaxial oilalarda kelin erning oila ázolarini hurmat qilishni órganishadi va ánanalarga étibor qiladi. Keyingi bosqichda bólsa farzand kórishga va shu farzandi voyaga etkazishga bir étiborini qaratadi. Birinchi farzanddan song ularda moliyaviy tomon pasayadi. Bu degani bolaning harajatlariga puli etmaydi. Shu sababli ular kamida 3-4 yildan song farzand tuğilishi kerak deb hisoblaydi. Abu Nasr Forobiy (873–950) Forobiy oilani jamiyatning asosiy bólagi sifatida kórib, uning ahilligi va barqarorligini táminlash muhimligini tákidlagan. Uning fikricha: “Oila nafaqat shaxsiy ehtiyojlarni qondirish joyi, balki jamiyatni barqarorlashtiruvchi muhim institutdir. Oiladagi ázolar órtasidagi óz-aro hurmat va birdamlik jamiyatning sógлом rivojlanishi uchun zarur”[3]. Jaloliddin Rumiy (1207–1273) Rumiy oilada muhabbat va samimiyatning órni haqida kóp yozgan. Uning fikricha: Muhabbat oilaning barqarorligini táminlaydi. Oila – insonni ichki uyğunlikga olib boruvchi muhim vositadir. Oilada óz aro tushunish va hissiy boğlanish ahamiyatlidir[4].

Kóplab olimlarning tákidlashlaricha, yosh oilaning mustahkamlanib, oyoqqa turib ketishi, turli maishiy muammolarni ózi mustaqil xal qilishi uchun zarur bólgan muddat aslida turmush qurgan ikki shaxsning bir-biriga bólgan samimiy munosabatiga, oila va uning atrofidagi turli qadriyatlarga nisbatan uyğun qarashlariga, ota-ona oilasida ibrat sifatida kórgan-kechirganlari uchun óz oilasida qóllay bilish mahoratiga bevosita boğliqdir. Lekin bari bir har bir oila aynan yoshlik davridagi qiyinchiliklarni boshdan kechiradiki, bu muammolar kuyidagi holatlarga boğliq tarzda namoyon bóladir:

- oilaviy hayotni bir maromda kechishini táminlash, ishlash, óqish yoki boshqa masalalarni hal qilish uchun vaqtning yetishmasligi;
- vaqtni yaxshi ótkazish, kóngil xushliklarning cheklanganligi;
- yangi sharoitda erkakning ham ayolning jismonan toliqishi, asablarning charchashi;
- iqtisodiy qiyinchiliklar [5].

Yosh oilaning mustahkamligi va barqaror rivojlanishi kóp jihatdan tógrí rejalashtirishga boğliqdir. Oila qurish nafaqat ikki insonning birlashuvi, balki kelajak hayotini ongli ravishda tashkil etishni ham talab etadi. Shu sababli yoshlar nikohdan oldin va keyin óz oldiga aniq maqsadlar qóyib, oilaviy hayotning turli yónalishlari bóyicha puxta reja tuzishlari muhimdir. Oilaviy rejalar tuzish orqali er-xotin óz hayotini tartibga soladi, muammolarning oldini oladi hamda kelajakda yuzaga kelishi mumkin bólgan qiyinchiliklarga tayyor bóladir. Ayniqsa,

moliyaviy barqarorlik, farzand tarbiyasi va yashash sharoitlarini oldindan rejalashtirish yosh oilaning mustahkam poydevorini yaratadi. "Oilaviy rejalar tuzish va kelajakga tayyorgarlik yonalishlari

-Moliyaviy barqarorlikni rejalashtirish – oilaning daromad va xarajatlarini oqilona boshqarish, kelajak uchun jamg'arma to'plash va moliyaviy xavf-xatarlarga tayyorgarlik k'orish maqsadida belgilangan aniq maqsadlar.

-Farzand tarbiyasi va talim rejaları – nikohlanuvchi shaxslar kelajakda nechta farzand k'orishi, ularni qanday tarbiyalash va qaysi qadriyatlarni singdirishi kabi masalalarni reja qilishlari.

-Uy-joy va yashash sharoitlarini rejalashtirish – er-xotin oilaviy hayot boshlanganda qayerda yashashi, qanday sharoitda farzand tarbiyalashi haqida aniq reja tuzishi" [6].

Xulosa qilib aytganda, yosh oila — bu jamiyatning eng muhim ijtimoiy b'og'ini b'olib, uning mustahkamligi bevosita jamiyat barqarorligi va kelajak avlod tarbiyasiga t'asir k'orsatadi. Yosh oilalar hayotining dastlabki bosqichida asosan moliyaviy qiyinchiliklar, hayotiy tajribaning yetishmasligi, ma'suliyatni to'liq anglamaslik, qarindoshlik munosabatlariga moslashish va psixologik bosim kabi muammolar bilan yuzlashadi. Mazkur qiyinchiliklarni yengib o'tishda hal qiluvchi omillar — bu er-xotin o'rtasidagi o'z aro hurmat, ishonch, sabr-toqat va samarali muloqotdir. Aynan shu sifatlar oiladagi kelishmovchiliklarni kamaytiradi va sog'lom muhitni shakllantiradi. Shu bilan birga, ota-onalikga ongli tayyorgarlik k'orish, farzand tarbiyasi b'oyicha zarur bilimlarga ega b'olish hamda oilaviy qadriyatlarni amalda q'ollash yosh oilaning barqaror rivojlanishini t'aminlaydi. Amaliy jihatdan qaraganda, yosh oilaning mustahkam b'olishi uchta asosiy yonalishga b'og'liq: birinchidan, moliyaviy rejalashtirish, ikkinchidan, ijtimoiy-psixologik moslashuv, uchinchidan esa, farzand tarbiyasiga ma'suliyatli yondashuvdir. Demak, yosh oila muvaffaqiyati tasodifiy emas, balki aniq rejalashtirish, ongli qarorlar qabul qilish va o'z aro hamkorlik natijasidir. Shunday yondashuv orqali yosh oilalar mustahkamlanadi, ichki muammolarni samarali hal etadi va natijada jamiyatning sog'lom hamda barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Е.В.Жижко, С.Д.Чигановой. "Молодая семья: проблемы и перспективы социальной поддержки / под общей редакцией". – Красноярск: РУМЦ ЮО, 2005. – 300 с
2. Мустаева Ф. А. Основы социальной педагогики. – М.: Академический проект, 2001. – С. 38
3. 1.Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Oqituvchi, 1992. – 160 b.
4. SHARQ MUTAFAKKIRLARINING OILA VA OILAVIY MUNOSABATLAR BORASIDAGI QARASHLARI Irmatova Shaxnozaxon Baxtiyarovna Alfraganus Universiteti Pedagogika kafedrasi magistranti maqolasidan
5. Психология семья: Учебник для педагогических Вузов // Автор: В.М.Каримова. - Т.:, 2007. - 316 с
6. "Oila va gender" ilimiy-tadqiqot instituti kanalidan
https://t.me/mahallavaoila_instituti